

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

O‘ZDJTU rektori

I. Tuxtasinov

2026 yil

Oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim institutiga kiruvchilar uchun

10.00.07 – “Adabiyot nazariyasi” ixtisosligi bo‘yicha

DASTUR

Toshkent – 2026

10.00.07 – “Adabiyot nazariyasi” mutaxassisligi bo'yicha tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka kirish imtihoni dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining majlisida muhokama qilindi va _____ 2026 yilda foydalanishga tavsiya etildi.

Tuzuvchilar: filologiya.f.f.d. (PhD), professor Sapayeva Feruza Davlatovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor Natalya Petruxina Mixaylovna
filol.f.d. (DSc), professor Umarova Maxliyo Yunusovna
filol.f.f.d. (PhD) Turamuradova Iroda Ilxombayevna

Taqrizchilar: Alisher Navoiy nomidagi O'zTAU professori Ulug'ov Abdulla O'zbekovich
O'zDJTU, filol.f.f.d. (PhD), dotsent Ma'diyeva Adiba Dovudovna

KIRISH

Mazkur dastur 10.00.07 – Adabiyot nazariyasi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura va doktoranturaga kiruvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, talabgorlarning adabiyot nazariyasi faniga oid nazariy bilimlari, ilmiy tafakkuri, badiiy asarni tahlil qilish ko'nikmalari hamda zamonaviy adabiyotshunoslikdagi ilmiy yondashuvlarni egallaganlik darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Dasturda adabiyot nazariyasining predmeti va vazifalari, badiiy adabiyotning ijtimoiy-estetik mohiyati, adabiy tur va janrlar tizimi, badiiy obraz va obrazlilik, syujet va kompozitsiya, poetik unsurlar, badiiy nutq, uslub va metod masalalari, shuningdek, zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb nazariy konsepsiyalari qamrab olingan. Shuningdek, dasturda Sharq va G'arb adabiyotshunosligining nazariy qarashlari, mumtoz va zamonaviy adabiy-estetik tafakkur taraqqiyoti, komparativistika, germenevtika, strukturalizm, poststrukturalizm, intertekstual tahlil kabi ilmiy yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Doktoranturaga kiruvchi talabgor badiiy matnni ilmiy-nazariy asosda tahlil qila olishi, adabiy jarayon va poetik hodisalarni zamonaviy metodologiyalar asosida talqin etishi, ilmiy xulosa chiqarish hamda mustaqil tadqiqot olib borish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tizimida adabiyotshunoslik yo'nalishida yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2015-yil 30-iyundagi 217/12-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari pasporti" 10.00.07 – Adabiyot nazariyasi ixtisosligi pasporti talablari asosida ishlab chiqildi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va Davlat ta'lim standartlarida yoshlarni har tomonlama komil insonlar etib tarbiyalash vazifasi belgilangan. Bu mumtoz madaniyatimiz va qadriyatlarimizni anglash, o'zlashtirish, ajdodlarimiz targ'ib etgan ma'naviy-axloqiy mezonlarni talabalar ruhiyatida ulg'aytirish asosida amalga oshiriladi. 10.00.07 – Adabiyot nazariyasi ixtisosligi bo'yicha tuzilgan malakaviy imtihoni dasturi filologiya fanining ushbu tarmog'iga oid nazariy bilimlarni qamrab olishga qaratiladi. Ushbu dastur tizimli ravishda shakllantiriladi. Maqsad talabgorning yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishidir. Bunda Sharq va G'arb poetik tafakkuri tarixi, zamonaviy jahon adabiyotshunosligi, adabiy-nazariy tafakkurga doir ishonchli manbalarga tayaniladi.

Talabgorlar o'z milliy adabiyoti nazariyasi tarixi, zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb muammolarini bilishi va to'g'ri talqin qila olishi, milliy adabiyotshunoslikni jahon nazariy tafakkuri kontekstida tushunishi bugungi ilmiy-adabiy jarayon rivoji uchun o'ta muhimdir. Shuningdek, milliy adabiyot nazariyasining jahon standartlari darajasiga yaqinlashuvi milliy ma'naviyatimiz,

adabiyotimiz, ijtimoiy hayotimiz rivojini ta'min etadigan omillardan biridir.

KIRISH IMTIHONINING ASOSIY TALABLARI

Ixtisoslik formulasi: "Adabiyot nazariyasi" badiiy adabiyotning nazariy-metodologik hamda ijtimoiy-estetik tabiatini, borliqni badiiy qayta yaratish qonuniyatlarini, badiiy adabiyotning taraqqiyot yo'llari, tur va janrlarini tadqiq etadi. Shuningdek, ushbu ixtisoslik badiiy asarning tarkibiy qismlari, tasvir va ifoda vositalari, badiiy asar uslubi va she'riy nutq masalalari, jahon adabiyotshunosligi an'analari bilan bog'liq holda badiiy adabiyotning boshqa san'at turlari bilan o'zaro farqli va o'ziga xos jihatlarini o'rganadi. Badiiy obraz yaratishning nazariy muammolari, badiiy asarda shakl va mazmun mutanosibligi, badiiy shartlilik qonuniyatlariga amal qilish, ijtimoiy va psixologik determinizm, badiiy ijodda milliy va umuminsoniy qadriyatlar talqini hamda adabiyotshunoslik fanining falsafiy, estetik va psixologik aloqalari mazkur ixtisoslikning tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Tadqiqot yo'nalishlari:

Badiiy adabiyotning paydo bo'lish omillari va tarixiy taraqqiyoti;

Badiiy adabiyotning asosi sifatida obrazlilik va uning tarixiy kategoriya sifatidagi o'zgarishi, ushbu o'zgarishlarning obyektiv sabablari hamda mezonlari;

Adabiyotshunoslikning metodologik asoslari va zamonaviy adabiy jarayonning yetakchi tamoyillari;

Adabiy tur va janrlarning o'ziga xosligi, ularning jahon adabiyoti kontekstidagi normativlik xususiyatlari;

Adabiyotni struktural hamda semiotik yo'nalishlarda tadqiq etish yo'llari va imkoniyatlari.

Badiiy-poetik sintez va uning janrlararo afzalliklari;

Badiiy nutq tabiati va poetik sintaksis muammolari;

Sharq va G'arb adabiyotlari o'rtasidagi aloqalar hamda o'zaro ta'sirning globalashuv masalalari, ushbu jarayonda milliy adabiyotning istiqbolini belgilash;

Zamonaviy adabiy jarayonda Sharq mumtoz poetikasining o'rni va ahamiyati;

Milliy adabiyotda paydo bo'layotgan badiiy oqimlar va yo'nalishlar hamda ularning adabiyot taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri masalalari;

Jahon xalqlari adabiyotidagi she'riy tizimlar va ular tarkibida o'zbek she'riyatining tutgan o'rni.

So'z san'atining ikki shakli – og'zaki va yozma adabiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muammolari, ushbu munosabatlarning asosiy yo'nalishlarini belgilash;

Umumiy va badiiy dunyoqarash mutanosibligining ilmiy asoslarini ishlab chiqish;

Ma'naviy faoliyatning turli shakllari – badiiy, diniy, falsafiy yo'nalishlar o'rtasidagi aloqalarni o'rganishning ilmiy asoslari va metodlarini ishlab chiqish; bunda adabiy-badiiy faoliyat ustuvorligini saqlagan holda so'z san'ati va din, so'z san'ati va falsafa munosabatlarini ularning tarkibiy qismlari kesimida tadqiq etish.

Adabiyot nazariyasi, poetika va an'anaviy tilshunoslik, eng avvalo, lingvistik stilistika hamda struktural tilshunoslik o'rtasidagi mutanosiblikni yanada takomillashtirish;

Ijodda tashqi va ichki omillar o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi markaziy adabiyotshunoslik kategoriyasi – badiiy-adabiy uslub falsafasining ilmiy asoslarini chuqur ishlab chiqish;

Poetika va badiiy-adabiy uslub nazariyasi, uslubiy izlanishlarning ilmiy asoslarini yanada rivojlantirish;

Badiiy-adabiy uslub, ijodiy metod, janr, nutq uslubi hamda boshqa aniq ilmiy-metodologik kategoriyalarning o'zaro nisbati va aloqadorligini ilmiy jihatdan asoslash.

Adabiyot nazariyasi va xususan, poetikaning struktural hamda poststruktural tahlil tizimlari, germenevtika, dekonstruksiya va shu kabi kategoriyalar bilan o'zaro munosabati darajasini yanada rivojlantirish;

Badiiy adabiyotdagi muayyan ma'naviy va uslubiy tamoyillar hamda ularning tipologiyasini o'rganish;

Badiiy tarjima faoliyati tajribalarini umumlashtirish;

Adabiy-badiiy tanqid nazariyasi va tarixini ularning o'zaro aloqadorligida tadqiq etish;

She'riyat madaniyatini (vazn, ohang va she'r san'atlarini) o'rganish.

“ADABIYOT NAZARIYASI” FANINING OBYEKTI, PREDMETI VA VAZIFALARI

1. Asosiy san'at turlari, ularning kelib chiqishi va bir butun san'at tizimi sifatidagi estetik funksiyasi, ayni tizimda so'z san'atining o'rni va ahamiyati. So'z san'ati spetsifikasi. Adabiyotning etik, estetik va ijtimoiy vazifalari. Adabiy tur va janrlar. Badiiy asar. Ijod jarayoni. Ijodiy metod masalalari. Qahramon, obraz, portret va xarakter muammolari. Suje't, kompozitsiya va fabula. Badiiy asar arxitektonikasi. Badiiy til va uslub. Sharq va G'arb poetikasining umumiy va xususiy jihatlari talqini.

2. Adabiyot nazariyasi fani – adabiyot tarixi, adabiy tanqid, matnshunoslik va manbashunoslik, adabiyotshunoslik metodologiyasi, falsafa, psixologiya, sotsiologiya, etika, estetika singari qator boshqa fan sohalari bilan uzviy aloqadorligini ko'zda tutish. Ushbu fan yuzasidan tadqiqot usullarini ishlab chiqish. Tadqiqot jarayonida zarur bo'ladigan nazariy tushuncha va terminlarni sistemaga solish.

3. San'atning kelib chiqishi va turlari. San'atning asosiy turlari: Me'morlik, haykaltaroshlik, rassomlik, musiqa, raqs, so'z san'ati. Ularning genezisi masalalari. Har bir san'at turining spetsifik o'ziga xosligi va umumiy jihatlari. Bunda material, ijodkor va ijodkor estetik qarashlarining ahamiyati. San'at turlari differentsiatsiyasi. Keyingi davrlarda paydo bo'lgan sintetik (qurama) san'at turlari haqida umumiy tushuncha. Ularning so'z san'ati bilan munosabati.

4. Adabiyot so'z san'ati sifatida. Adabiyotning lug'aviy ma'nosi. Adabiyot termini va uning tarixiy taraqqiyot bosqichlari. Adabiyotning falsafa, estetika, psixologiya va boshqa sohalar bilan munosabati. Adabiyotda mazmun-shakl uyg'unligi masalasi. Adabiyot va estetik kategoriyalar. Badiiy adabiyotda pafos. Go'zallik tushunchasi adabiyotning asosi sifatida. Obrazlilik va obrazli tafakkur.

Til va badiiy uslub.

5. Adabiyot nazariyasi va adabiyotshunoslik metodologiyasi. Metodologiya adabiyot nazariyasining asosiy muammolaridan biri sifatida. Nazariy poetikaning tarixiy poetikaga tayanishi. Jahon poetik tafakkuri tarixi va ilmiy-nazariy metodlar haqida tushuncha. Qadim hind, qadim xitoy va qadim yunon adabiy-estetik tafakkuri. Aristotel, Forobiy, va Navoiyning poetik qarashlari. Qiyosiy-tarixiy, tipologik, formal maktab. Struktural, biografik va psixanalitik metod xususiyatlari. Germenevtik metodning o'ziga xosligi. "Yangi tanqid" xususida. M.Baxtin va uning polifoniya hamda xronotop nazariyasi.

6. Biografik metod. Ushbu metodning ijodkor biografiyasi bilan uzviy bog'liqligi. Ijtimoiy omillarning biografik metodning shakllanishidagi o'rni. Biografik metod va falsafa. Biografik metod va tarix. Biografik metod va genetika. Biografik metodning psixologik va psixobiografik omillari. Biografik metodning shakllanishida Sharl Sent-Byov ilmiy-tanqidiy faoliyatining o'rni. Andre Morua tadqiqotlari biografik metodning yangi bosqichi sifatida. O'zbek adabiyotshunosligi va biografik metod.

7. Psixozanaliz va badiiy ijod. Psixozanalizning maydonga kelish tarixi: Z.Freydning psixanalitik tadqiqotlari. K.Yung va E.Fromm neofreydistik qarashlari. Libido, ego, superego psixozanalitik talqinnig kalit tushunchalari sifatida. Psixozanalizda biofil va nekrofil tushunchalari. Psixozanalizning badiiy ijod bilan bevosita va bilvosita munosabati. Sofokl, Shkekspir, F.Dostoyevskiylar ijodi psixozanalitik talqin kontekstida. Psixozanaliz va Sharq ma'rifiy tafakkuri aro ziddiyatlar, buning sabablari. Psixozanalizning cheklangan jihatlari.

8. Badiiy ijod va ijodiy jarayon masalalari. Badiiy ijodda ijodkor pozitsiyasi, dunyoqarashi va milliy mansubligining ahamiyati. Ijod jarayoni: mavzu tanlash, material yig'ish, materiallarni tizimli joylashtirish, yozish jarayonlari. Ijodiy jarayon va estetik ideal. Ijodiy jarayonda pafos go'zallik, xunuklik, fojiaaviylik, dramatiklik, komiklik, sentimentallik. Ijod psixologiyasi. Ijod jarayoni va ijodiy metod mushtarakligi.

9. Badiiy adabiyotda umuminsoniylik, milliylik va individuallik. Estetik idealning yuksakligi va adabiyotda umuminsoniylik masalasi. Milliylik har qanday adabiyot namunasining mohiyatini tashkil etishi. Adabiyotda xalq tili va folklor elementlari. Zamonaviy adabiyot va milliy til. Estetik ideal va milliylik. Ijodkor individualligi: uning ijtimoiy, falsafiy va psixologik omillari.

10. Badiiy asarda mazmun va shakl uyg'unligi. Badiiy asar tushunchasi: badiiy, nazariy va estetik kriteriylari. Badiiy asarda mazmun va shaklga xos komponentlar. Shakl va mazmun uyg'unligi badiiylikning muhim sharti ekanligi. Badiiy asarda mavzu va g'oya. Badiiy asarda syujet, kompozitsiya va fabula. Qahramon, obraz, portret va xarakter muammosi.

11. Badiiy obraz va obrazlilik. Obrazli tafakkur va obrazlilik. Obraz yaratishda badiiy til va uslubning ahamiyati. Badiiy asarda obraz. Badiiy asar obrazlari tizimi va ilmiy-nazariy tasnif muammosi. Badiiy obraz va xronotop.

12. Tarixiy obraz. Tarixiy obraz spetsifikasi. Tarixiy obrazning turlari. Epik asarlarda tarixiy obraz. Dramatik va lirik asarlarda tarixiy obraz. Tarixan real voqelik va tarixiy obraz munosabati. Tarixiy obraz talqinida badiiy to'qimaning o'rni. Tarixiy-biografik obraz. Tarixiy romanda "volter-skotcha" obraz shakli. O'zbek tarixiy romanlarida bosh qahramon masalasi.

13. Adabiy tur va janrlar. Adabiy tur haqida tushuncha. Adabiy turlar spetsifikasi. Adabiy janrlarni belgilash prinsiplari. Nazariy kriteriyalar masalasi. Epos va uning janrlari. Lirik: Sharq she'riyatiga xos lirik janrlar. G'arb poeziyasi janrlari. Drama: tragediya, drama va komediya. Dramada pafos masalasi. Sintetik janrlar: tragikomediya.

14. Roman janri. Roman janrining shakllanish omillari. Qadim Yunon romani. Ritsar romani va uning turlari. Uyg'onish davrida roman takomili. Yangi davr Yevropa romani. Realistik roman va uning shakllari. Sentimental roman. Ma'rifatchilik romani va uning spetsifikasi. Modernizm adabiyotida romanning o'rni. Postmodernistik roman xossalari.

15. Drama janri. Dramaning maydonga kelish tarixida mif va marosimlarning o'rni. Dramaning o'rta janr ekanligi. Tragediya, komediya va drama o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlar. Yevropa dramasi o'rta asrlardagi ko'rinishlari: liturgik teatr, misteriyalar, mimlar. Klassitsizm dramalari. Dramada obraz, kompozitsiya va konflikt masalasi. Milliy dramaturgiya va uning omillari.

16. She'riy vaznlar masalasi. She'riyatda hijo va tovush (tonik) sistema. Gekzometr va aruz. Aruz vazni tarixi. Aruz poetikasi: janrlar, bayt, misra, rukn, qofiya va radif tushunchalari. Barmoq vazni tarixi va poetik xususiyatlari. Sarbast vazni. Erkin va oq she'r.

17. Ijodiy metod. Ijodiy metodlar va ularning shakllanish prinsiplari. Ijodiy metodning milliy va individual omillari. Ijodiy metod va falsafa. Ijodiy metod va ijodkor dunyoqarashi masalalari. Klassitsizm universal metod sifatida. Sentimentallik va sentimental badiiy talqin. Romantizm metodi: G'arb va Sharq romantizmi. Realizm va naturalizm metodlari o'rtasidagi umumiy va xususiy jihatlar. Modernizm adabiyoti: dekadent adabiyoti, syurrealizm, impressionizm, ekspressionizm, ekzistensializm, absurdizm.

10.00.07 – "Adabiyot nazariyasi" ixtisosligi bo'yicha kirish imtihon dasturi yuzasidan o'qish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2018-

yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2018-yil 16-yanvar, №11.

2. Boltaboyev H. Nazariy poetika. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2025. - 404 b

3. Адабий тур ва жанрлар. Биринчи том. – Toshkent, 1991.

4. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Toshkent, 2000.

5. Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Рус тилидан У.Жўракулов таржимаси. – Тошкент, 2015.

6. Волков И. Теория литературы. – Москва, 1995.

7. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент, 2015.

8. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент, 2011.

9. Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент, 2016.

10. Мели С. Сўзу сўз. – Тошкент, 2020.

11. Олимов М. Ҳозирги ўзбек адабиётида пафос муаммоси. – Тошкент, 1994.

12. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент, 2002.

13. Sapayeva F.D. Hozirgi adabiy jarayon. O'quv qo'llanma. – Toshkent, Tafakkur bo'stoni, 2020. 160 b.

14. Sapayeva F.D. Badiiy asarda ijodkor fenomeni: ruhiyat va mohiyat. – Toshkent, Firdavs-shoh nashriyoti, 2025. 122b.

15. Теория литературы. В двух томах. Том 1. Н.Д.Тамарченко, В.И.Тюпа, С.Н.Бройтман. Теория художественного дискурса. Теоретическая поэтика. – Москва, 2004.

16. To'rayeva B., Ko'chimov.U. Adabiyotshunoslik. Toshkent, Malika Print CO, 2022. 192 b.

17. To'rayeva.B. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, EFFECT-D, 2020.164 b.

18. Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы. Перевод с английского А.Зверова, В.Харитонов, И.Ильина. – Москва, 1978.

19. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев - Т., 1995.

20. Хализев В.Е. Теория литературы. – Москва, 1999.

21. Пospelев Г.Н. Теория литературы. – Москва, 1978.

22. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Тошкент, 2008.

23. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent, Noshir, 2019.

24. Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent, 2011.

25. Ҳусайний Атоуллоҳ. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент, 1981.

Elektron manbalar:

1. www.ziyo.uz

2. www.litera.ru

3. www.philologs.narod.ru.